



NUTQIDA NUQSONI BO'LGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI
BOLALARNING XOTIRA XUSUSIYATLARI

Musayeva Nargiza Sayfullayevna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Maxsus pedagogika kafedrası

professor v.b.

Tagayeva Shaxlo Kamildjanovna

Kimyo xalqaro universiteti

Logopediya yo'nalishi MSPD-1U

Annotatsiya: *Ushbu maqolada nutq kamchiligiga ega bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning xotira xususiyatlari yoritilgan*

Аннотация: *В данной статье раскрыты особенности памяти детей дошкольного возраста с речевыми нарушениями.*

Annotation: *This article highlights the memory characteristics of preschool children with speech disorders.*

Kalit so'zlar: *nutq, bilish jarayonlari, xotira, diqqat, tasavvur, tafakkur.*

Ключевые слова: *речь, познавательные процессы, память, внимание, воображение, мышление.*

Keywords: *speech, cognitive processes, memory, attention, imagination, thinking.*

Inson butun umri davomida atrofdagi olamni sezadi va idrok etadi, ammo bu sezgi va idroqlar izsiz yo'qolib ketmaydi, balki xotira tufayli ma'lum darajada eslab qolib boriladi.

Xotira – bu inson ilgari aks ettirgan, bajargan va kechirgan narsalarni muhrlash, saqlash va qayta tiklashga oid psixik bilish jarayonidir. Ya'ni xotira – bu insonning hayotiy tajribasini eslab qolishi, saqlashi va keyinchalik uni qayta esga tushirishi. Deyarli har qanday psixik jarayonning kechishi undagi har bir elementni



keyingi bo'g'in bilan bog'lash uchun ma'lum muddat ushlab turishni taqozo etadi. [1,3,4].

Olingan ma'lumot qancha muddatga eslab qolinishiga qarab xotira quyidagi turlarga bo'linadi: *ko'ruv xotirasi, emotsional xotira, obrazli xotira, so'z-mantiqiy xotira, uzoq muddatli, qisqa muddatli, operativ, ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira*. [1,2].

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqida leksika, grammatika va fonetika jihatidan yetarlicha to'liq bo'lmagani bilan xarakterlanadi. Bunday bolalarda tasavvur kambag'al bo'ladi, ko'ruv orqali predmetlarning shaklini yodda saqlash qiyin, ularning shaklini uzoq vaqt o'zlashtira olmaydi, predmetlarni to'g'ri joylashtira olmaydi. Diqqati yetarli emas, bir turdagi faoliyatdan boshqasiga qiyinchilik bilan o'tadilar. Har qanday topshiriqda bola uni bajara olishi uchun ko'p marotaba tushuntirish va ko'rsatish talab etiladi. Maqsadga yo'naltirilganlik yetishmasligi tufayli faoliyat samaradorligi past bo'ladi, og'zaki xotira pasaygan, so'z-mantiqiy tafakkur rivojlanishida orqada qolish kuzatiladi. [3,6].

Nutq buzilishlari bilan psixik rivojlanishning boshqa jihatlari o'rtasidagi chambarchas bog'liqlik maktabgacha yoshdagi nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning xotira, jumladan ko'ruv va eshituv xotirasining ayrim o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi. [1,2].

Bolalardagi nutq buzilishi ularning ko'ruv va eshituv xotirasi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bu o'zlashtirishning sekin sur'atda borishi, materialning beqaror saqlanishi va uni qayta tiklashning noaniqligida namoyon bo'ladi. Xotiraning sanab o'tilgan kamchiliklari bilan bir qatorda, idrok etilayotgan materialni qayta ishlash bilan bog'liq xotira yetarlicha mukammal emasligini ham qayd etish zarur. Ushbu qayta ishlash va eslab qolishga tegishli taassurotlarni tanlab olish jarayoni inson xotirasining yana bir o'ziga xos tomoni — eslab qolishning vositali xarakteri bilan bog'liq. [2,5,6].

Ko'ruv xotirasi obrazli xotiradan farq qiladi, turli odamlarda u turlicha rivojlangan bo'ladi. Normal rivojlanayotgan bolalarda ko'ruv xotirasining hajmi



yetarlicha katta bo‘lib, ular taklif etilgan 7 ta obyektни oson eslab qolishlari va qayta tiklashlari mumkin.

Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar esa taklif qilingan obyektlarni, ayniqsa geometrik shakllarni qiyinchilik bilan eslab qoladilar. Bundan tashqari, Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ko‘ruv xotirasi ularning normal rivojlanayotgan tengqurlariga nisbatan ko‘proq darajada obyektning ifodaliligi, yorqinligi, yangiligi, shuningdek, ko‘ruv xotirasi jarayonining maqsadi va tashkil etilish usuliga bog‘liq bo‘ladi. [3,4].

Eslab qolishning zaruriy sharti – subyektning predmetlar bilan o‘zaro ta’siri. Demak, maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar ixtiyorsiz eslab qolishning samaradorligini oshiradi. Faoliyatning bunday tuzilmasida nerv bog‘lanishlarining hosil bo‘lishi va mustahkamlanishi uchun eng qulay sharoitlar yuzaga keladi.

Nutqning rivojlanishi bolaning psixik rivojlanishi va oliy nerv faoliyatining shakllanish xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq.

Nutqida nuqsoni bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda eng rivojlangan xotira turi – motor xotira, eng zaifi esa – eshituv xotirasidir. Bunday bolalar nutqi normal rivojlangan tengdoshlariga nisbatan xotira hajmi va ma’no xotirasining rivojlanganlik darajasi bo‘yicha orqada qoladilar. [1,4].

Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarda diqqatning turli jihatlari: konsentratsiya, ko‘chish, taqsimlanish, hajm va barqarorlik normal rivojlangan tengdoshlariga qaraganda ancha pasaygan bo‘ladi.

Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarda tafakkur rivojlanishi nutqning tizimli yetarlicha rivojlanmaganligi bilan bog‘liq. Ko‘p hollarda tafakkur rivojlanishidagi buzilish darajasi nutq nuqsonining og‘irligiga bog‘liq bo‘ladi.

Nutqni o‘zlashtirish bolalarda tasavvur (xayol) shakllanishiga katta hissa qo‘shadi, nutq rivojlanishidagi kechikish esa tasavvur rivojlanishining orqada qolishiga olib keladi. [1,5].

Xulosa tarzida shuni aytish mumkinki, xotira – bu o‘tgan tajribani qayta ishlash va mazmunini tashkil etish jarayoni bo‘lib, u tajribani faoliyatda qayta qo‘llash yoki yana ong doirasiga qaytarish imkonini beradi. Xotira insonning



o‘tmishini uning buguni va kelajagi bilan bog‘laydi hamda inson rivojlanishi va o‘qishining asosida yotuvchi eng muhim bilish funksiyasidir. Xotirasiz inson to‘laqonli shaxs sifatida rivojlana olmas edi. Ixtiyorsiz eslab qolish – bu subyekt faoliyati mahsulidir.

Shunday qilib, bolalik davridagi nutqning yetarli darajada rivojlanmaganligi bolaning butun psixik faoliyati shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Выготский, Л. С. (2017). Лекции по психологии. Мышление и речь.
2. Калягин В.А. Логопсихология / В.А. Калягин, Т.С. Овчинникова. – М.: Академия, 2008. – 320 с.
3. Сарбалаева, С. М. (2013). Развитие воображения у детей дошкольного возраста. Наука и современность, (25-1), 137-142.
4. Худик Владимир Александрович ЛЕВ СЕМЁНОВИЧ ВЫГОТСКИЙ: ВЧЕРА, СЕГОДНЯ, ЗАВТРА // КПО. 2015. №2 (2). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/lev-semyonovich-vygotskiy-vchera-segodnya-zavtra> (дата обращения: 19.03.2025).
5. 2017yil 9 sentyabr, “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3261 son
6. L.R. Mo’minova, SH.M. Amirsaidova, Z.N.Mamarajabova, M.U.Xamidova, D.B.Yakubjanova, Z.M. Dlalolova, N.Z. Abidova Maxsus psixologiya. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013